



OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH DARAJASI: AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI VA DASTAKLARI



Mattiev Sodiqjon Qodirovich
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash darajasi, uning amalga oshirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dastaklari, oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat barqarorligi va aholining hayot sifatini yaxshilashda asosiy omillar tahlil qilingan. Xalqaro tajribalar va zamonaviy strategiyalar asosida milliy oziq-ovqat xavfsizligi tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ham beriladi.

Tayanch so'zlar: Oziq-ovqat xavfsizligi, savdo, narxlar, oziq-ovqat tizimi, ishlab chiqarish, depressiv hudud.

Аннотация: В данной статье проанализирован уровень обеспечения продовольственной безопасности, рычаги его реализации и государственной поддержки, основные факторы продовольственной безопасности, стабильности страны и повышения качества жизни населения. На основе международного опыта и современных стратегий также даются предложения и рекомендации, направленные на повышение эффективности национальной системы безопасности пищевых продуктов.

Ключевые слова: Продовольственная безопасность, торговля, цены, продовольственная система, производство, деррессивная зона.

Annotation: This article analyzes the level of food security, the levers of its implementation and state support, the main factors of food security, stability of the country and improving the quality of life of the population. Based on international experience and modern strategies, proposals and recommendations are also given aimed at improving the effectiveness of the national food safety system.

Key words: Food security, trade, prices, food system, production, derressive area.

Oziq-ovqat xavfsizligi milliy xavfsizlikning ajralmas qismidir. Aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashni yaxshilash muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifa bo'lib, uning yechimi davlat va har bir aniq mintaqaning rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega.

Oziq-ovqat xavfsizligi – mamlakatning milliy xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'naliishlaridan biri, uning davlatchiligi va suverenitetini saqlab qolish omili, demografik siyosatning eng muhim tarkibiy qismi, milliy ustuvorliklarni amalga oshirish uchun zarur shartdir. SHu bilan birga, mintaqaning oziq-ovqat xavfsizligini baholashda nafaqat o'zini

o'zi ta'minlash darajasini, balki ularning aholi uchun iqtisodiy va jismoniy mavjudligiga ta'sir qiluvchi bir qator boshqa parametrlarni ham hisobga olish kerak.

SHunday qilib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash muammosini hal qilish tizimli tahlilni va vaziyatdan chiqishning maqbul yo'llarini izlashni talab qiladi. SHuning uchun mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi deganda oziq-ovqat resurslarining holatini tushunish kerak. Bunda oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoj asosan mahalliy ishlab chiqarish hisobidan qondirilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Oziq-ovqat xavfsizligining tuzilishini hisobga olgan holda, u ko'p darajali ierarxiyani ham ifodalaydi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash darjasи [1].

Ierarxik daraja	Sub'ektlar	Sub'ektlar vazifasi
Global	BMTning ixtisoslashgan organlari, FAO, JSTning Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha qo'mitasi, Jahon banki va boshqalar	Barqaror iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish, ochlikka qarshi kurash bo'yicha uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqish, oziq-ovqat zahiralarini yaratish.
Xalqaro	EI, MDH va mintaqalararo sub'ektlar, boshqa tegishli organlar forumlari	O'zaro barqaror iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish, oziq-ovqat sifati parametrlarini yaxshilash.
Davlatlararo	Hududiy birlashmalar va tegishli boshqaruv organlari	Savdo, narxlar, standartlashtirish bo'yicha shartnomalar tuzish orqali birdamlik xatti-harakati
Milliy	Hukumat, Qonun chiqaruvchi organlar	Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qonunchilik normativ-huquqiy va resurs bazasini yaratish, tegishli fondlar va ularning zaxiralarini shakillantirish. Oziq-ovqat sifati parametrlarini yaxshilash yo'nalishlarini aniqlash.
Mintaqaviy	Hududiy hokimiyat organlari (viloyat, tuman)	Uy xo'jaliklarida daromad olish uchun sharoit yaratish. Mahsulot yetkazib berish va sifat nazorati.
Aholi guruhlari	Daromadlar guruhi bo'yicha ijtimoiy guruhlar	Ratsional iste'molni ta'minlaydigan daromadga erishish.
Oylaviy	Uy xo'jaliklari	Oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish va ulardan foydalanish va boshqalar.

Global darajada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq masalalar va muammolar xalqaro tashkilotlar va ixtisoslashtirilgan tuzilmalar tomonidan tartibga solinadi (BMTning ixtisoslashgan organlari, FAO, JSTning Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha qo'mitasi, Jahon banki va boshqalar). Ularning eng muhim vazifasi oziq-ovqat xavfsizligining zarur darajasini ta'minlash uchun davlatlar iqtisodiyotini barqarorlashtirishga yordam berishdir.

Xalqaro darajadagi masalalar oziq-ovqat ta'minotining sifat parametrlarini yaxshilash muammolarini hal qiladigan, mamlakatlar birlashmalarining iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadigan tegishli organlar va forumlar tomonidan tartibga solinadi. Ushbu turdag'i birlashmalarning shakllanishiga Yel va MDH misol bo'la oladi.

Milliy darajadagi sub'ektlarga hukumatlar va qonun chiqaruvchi organlar kiradi. Ularning faoliyati iqtisodiy rivojlanishning barqarorligiga, davlat zaxiralarini shakllantirishga va ichki oziq-ovqat bozorida talab va taklif balansini ta'minlashga qaratilgan.

Mintaqaviy (viloyat) darajada oziq-ovqat xavfsizligi savdo, narxlarni belgilash, mahsulotlarni standartlashtirish, sifat parametrlari va boshqalar sohasidagi birdamlik xatti-harakatlari bo'yicha mintaqaviy bitimlar bilan belgilanadi. SHuningdek, hududiy boshqaruv sub'ektlari (tuman) tomonidan oziq-ovqat ta'minoti, ularning sifatini nazorat qilish va aholiga daromad olish uchun sharoit yaratish orqali mahalliy darajada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashi kerak.

Aholi guruhlari darajasida oziq-ovqat xavfsizligini belgilaydigan sub'ekt ijtimoiy guruhlari bo'lib, ularning vazifasi minimal iste'mol uchun zarur bo'lgan daromadlarni ta'minlash kiradi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydigan oilaviy darajadagi sub'ektlar uy xo'jaliklari bo'lib, ularning vazifasi mahsulotlarni sotib olish va ulardan foydalanish, muvozanatli ovqatlanishni tashkil etishdir. Tadqiq etilayotgan muammo bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida "mintaqaning oziq-ovqat xavfsizligi" darajasiga yetarlicha e'tibor berilmagan, degan xulosaga kelish mumkin. Bir qator tadqiqotchilar mamlakat oziq-ovqat bozorining birligi va mintaqalar o'rtasida oziq-ovqat harakati sohasida to'siqlar yo'qligi sababli mintaqalarga nisbatan "oziq-ovqat xavfsizligi" tushunchasidan foydalanish noto'g'ri, deb hisoblashadi [2]. SHuningdek, mintaqalarning oziq-ovqat xavfsizligi haqida emas, balki mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning mintaqaviy xususiyatlari haqida tadqiqotlar ko'proq samara beradi, degan xulosalar mavjud. Bunda mamlakatning barcha mintaqalari ikki guruuhga ajratilgan: oziq-ovqat mahsulotlarini import qiluvchi va eksport qiluvchi mintaqalar. Ushbu guruhlarning har birida tabiiy-iqtisodiy sharoitlarning o'ziga xos xususiyatlariga va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mintaqaviy ixtisoslashuviga qarab mintaqalarning bir qator kichik guruhlari ham aniqlangan [3]. Ikkinci guruuh tadqiqotlarda mintaqalarga nisbatan oziq-ovqat xavfsizligi holatini alohida mamlakatga nisbatan bo'lgani kabi ko'rib chiqish kerak [4]. SHuningdek, oziq-ovqat xavfsizligi – ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishslash, ulgurji va chakana savdo tizimining yil davomida tegishli hududlar aholisining barcha toifalarini ilmiy asoslangan tibbiy me'yorlarga javob beradigan va iste'mol hajmidagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror va teng ravishda ta'minlash qobiliyatidir, degan yondashuvlar uchraydi [5]. Mintaqaviy darajada oziq-ovqat mahsulotlarini boshqa mintaqalar va mamlakatlarga eksport qilish amalga oshiriladi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning

ikkala darajasi ham hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi va ochlikning mahalliy darajada namoyon bo'lish ehtimolini yo'q qiladi [6]. Bizningcha, mintaqaning oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat va umuman dunyoning oziq-ovqat xavfsizligi bilan bir xil ob'ektiv qonunlar asosida shakllanadi va amal qiladi. SHunday qilib, mintaqaviy darajada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning mavjud yondashuvlarini umumlashtirish orqali "mintaqaning oziq-ovqat xavfsizligi" deganda ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va savdo tizimining holati tushuniladi. CHunki, tegishli hududlar aholisining barcha toifalarini asosan ichki ishlab chiqarishning yuqori sifatli oziq-ovqatlari bilan uzlusiz ta'minlash mumkin. Mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning eng muhim maqsadi qishloq xo'jaligi mahsulotlari va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan mintaqaning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydigan darajaga erishishdir. SHu bois, mintaqaviy hokimiyat organlari tomonidan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni ustuvor iqtisodiy tizim sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Ushbu vazifa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan va mintaqada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga tahdid soladigan xavflar bilan bog'liq holda shakllanadi (1-rasmga qarang).

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash xatarlari

Makroiqtisodiy:

- Iqtisodiyotning va agrar sektorning investitsion jozibadorligini pasayishi;
- Bank kreditlari bo'yicha yuqori foiz stavkalari;
- Mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini pasayishi;

Texnologik:

- Mahalliy qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining ishlab chiqarish bazasini texnik va texnologik jihozlash bo'yicha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan ortda qolish;
- Oziq-ovqat sifatining pasayishi.

Tabiy-iqlim:

- Mintaqadagi ekologik vaziyat;
- Hududiy xomashyo va yoqilg'i-energetika ta'minoti.

Agroiqtisodiy:

- Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oqibatlari

Tashqi savdo:

- Bozor sharoitlarining o'zgarishi;
- Mahalliy qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarasiz choralar.

1-rasm. oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga tahdid soladigan xavflar klassifikatsiyasi [7].

Mintaqaviy hokimiyat organlari tomonidan ishlab chiqilgan uzoq muddatli maqsadli dasturlarni amalga oshirish orqali viloyat darajasida yuqoridagi xavflarning salbiy ta'sirining oldi olinadi. Bu esa mintaqani boshqarishning tashkiliy, ma'muriy va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Umuman olganda, mintaqaning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmi aralash tartibga solish turiga mos keladi va o'ziga xos chora-tadbirlar majmuidan iborat bo'ladi. (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Mintaqaning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmi¹

CHora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi
Tashkiliy	<ul style="list-style-type: none"> ▪ ulgurji bozorlar, omborxonalar qurilishini imtiyozli kreditlash asosida bozor infratuzilmasini rivojlantirish; ▪ mintaqqa tarmoqlariga investitsiyalarni jalg qilish uchun investitsiya imkoniyatlarini taqdim etish bo'yicha ishlarni faollashtirish; ▪ mintaqqa agrosanoat majmuasi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar yarmarkalari, ko'rgazmalari va boshqalarni tashkil etish.
Ma'muriy	<ul style="list-style-type: none"> ▪ mintaqqa hududida oziq-ovqat xavfsizligi va sifatini muntazam monitoring qilish; ▪ mintaqqa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning yillik monitoringini o'tkazish; ▪ yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni sertifikatlash va rag'batlantirish ▪ mintaqalararo darajada inson hayoti va sog'ligi uchun xavfli bo'lgan mahsulotlar va boshqalar to'g'risida ma'lumot almashish.
Moliyaviy-iqtisodiy	<ul style="list-style-type: none"> ▪ imtiyozli kreditlash, shu jumladan kelajakdagi hosilning garovi; ▪ qishloq xo'jaligi xomashyosini ishlab chiqarish, qayta ishslash uchun naslli chorva mollari, qishloq xo'jaligi texnikasi va uskunalarini lizingga berish mexanizmini ishlab chiqish va rivojlantirish; ▪ mahalliy qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining mahsulotlarini sotib olish mumkin bo'lgan oziq-ovqat fondlarini yaratish; ▪ ilmiy ishlanmalarni moliyalashtirish va tashkil etishni ta'minlash, mintaqaning oziq-ovqat bozorini

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

	monitoring qilish va prognoz qilish.
--	--------------------------------------

Davlat tomonidan tartibga solishning ma'muriy mexanizmi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun institutsional muhit yaratadi. SHuningdek, depressiv hududlarda to'plangan muammolarni har tomonlama hal qilish uchun bir qator uzoq muddatli maqsadli mintaqaviy dasturlar ishlab chiqiladi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmi maqsadli dasturlarni amalga oshirish, kadrlar tayyorlash, imtiyozlar, subsidiyalar berish va hokazolar uchun byudjet mablag'larining ehtiyojlarini aniqlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq. Ayniqsa, sug'ortalash davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning muhim shakli bo'lishi mumkin. Masalan, qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini, ko'p yillik ko'chatlar hosilini sug'ortalash xarajatlarining bir qismini qoplash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining mulkiy manfaatlarini, tabiiy-iqlim xavf omillari mavjudligi sababli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlardan himoya qilish va boshqalar.

SHu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlarining iqtisodiy mavjudligini oshirishning eng muhim yo'nalihi mintaqaviy hokimiyat organlari tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishini barqarorlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishdir. Bu quyidagi tadbirlarni amalga oshirish uchun boshlang'ich nuqta bo'ladi: daromadlari yashash minimumidan past bo'lgan aholi toifasining daromadlarini oshirish; mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarining bozor ta'minoti hajmini oshirish choralarini ko'rish.

Ayniqsa, oziq-ovqat narxlarining o'sish sur'atlarini pasaytirish vositalaridan biri oziq-ovqat mahsulotlarini davlat tomonidan tartibga solishni kuchaytirish bo'lishi kerak. Xususan, monopol narxlarning ko'tarilishini, birinchi navbatda ulgurji vositachilik sohasida qonuniy cheklash vositalarini ishlab chiqish zarur.

SHuni ta'kidlash kerakki, aholining barcha guruhlari uchun oziq-ovqat mavjudligini ta'minlash faqat umumiy iqtisodiy o'sish va aholi daromadlarining oshirish yetarli emas. Bundan tashqari, manzilli yordam talab qilinadigan aholi qatlamlari mavjud. Kambag'al aholini qo'llab-quvvatlash tabiiy shaklda samaraliroq (oziq-ovqat markazlari, maktab ovqatlari, ona va bola dasturlari va boshqalar). Depressiv hududlarning kam ta'minlangan fuqarolari maxsus oziq-ovqat kuponlari orqali oziq-ovqat olishlari mumkin. Buning uchun bozorga mustaqil ravishda kira olmaydigan fermer xo'jaliklaridan ushbu kuponlar bo'yicha mahsulotlarni sotib olish uchun byudjetdan maxsus mablag' ajratish mumkin. Bunda bir vaqtning o'zida ikkita muhim vazifani hal qilish mumkin bo'ladi – kam ta'minlangan va muhtoj oilalarga yordam berish va mahsulot sotish nuqtai nazaridan qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash.

Ayrim tadqiqotlarda ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlarni chakana sotish sohasida savdo marjasining ruxsat etilgan maksimal darajasini qonuniy ravishda belgilash tavsiya etiladi [8]. Yana bir jihat – oziq-ovqat xavfsizligi va mahsulot sifati, shu jumladan xom ashyo va mahsulotlar sifatini nazorat qilish, sifat menejmenti tizimlarini yaratish va sertifikatlash, aholi salomatligini yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish va boshqalar belgilangan [9].

SHu sababli, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun mintaqaning qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat resurslarini boshqarish tashkilotlari va mintaqaviy boshqaruv organlari ishlab chiqarish, saqlash, tashish, qayta ishslash va sotishning barcha bosqichlarida qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi ustidan nazoratni kuchaytirishlari kerak.

SHu bilan birga, mintaqa hududida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmi sifatida quyidagilar taklif qilingan: [10].

- butun mintaqa va alohida hudud tuzilmalari bo'yicha oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash holatini monitoring qilish;
- samarali boshqaruv qarorini qabul qilish uchun hokimiyat va boshqaruv organlariga mintaqaviy oziq-ovqat tizimining hozirgi holati va rivojlanish tendentsiyalari to'g'risida to'liq, har tomonlama va ob'eaktiv ma'lumotlarni taqdim etish;
- viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi prognozida, shuningdek maqsadli va idoraviy dasturlarda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash darajasini hisobga olish.

Depressiv hududlarlarning qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun resurs bazasining zaif bo'lganligi sababli, ularning hududida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagilar talab qilinadi: [11].

- qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatini texnologik modernizatsiya qilish, agrosanoat majmuasiga ishlab chiqarish xizmatlari ko'rsatish ishlarini olib borish;
- innovatsiyalarni o'zlashtira oladigan sohaning kadrlar salohiyatini oshirish;
- foydalanilmayotgan qishloq xo'jaligi yerlarida ishlab chiqarishni tiklash bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish;
- qishloq hududlarining zamonaviy ijtimoiy infratuzilmasini yaratish.

SHuni ta'kidlash kerakki, oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hal qilish agrosanoat ishlab chiqarishni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish bilan uzviy bog'liqdir. Barcha darajadagi byudjetlardan ajratilgan mablag'larning samaradorligini oshirish uchun, ushbu mablag'lardan oqilona foydalanishni ta'minlaydigan barqaror ishlaydigan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ustuvor huquqiga ega bo'lishi kerak.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun mahalliy ishlab chiqaruvchini himoya qilish, ekologik toza mahalliy xomashyodan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun imtiyozli shart-sharoitlarni (subsidiyalar, soliq tizimi, narxlash mexanizmi) yaratish kerak.

Umuman olganda, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash tizimi quyidagi parametrlar bilan belgilanadi:

- oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularni sotish va iste'mol qilish o'rtasida ma'lum bir muvozanatga erishish;
- tizimning barcha elementlari rivojlanganligi sababli tizimning murakkabligi;
- tizimning ishlashi kompozitsiya qonuniga bo'ysunadi, unga ko'ra tizimning barcha elementlari bir-biri bilan bog'liq holda rivojlanadi;
- tizimning ishlash maqsadlari jamiyat rivojlanishi bilan rivojlanadigan ehtiyojlar bilan belgilanadi.

SHhubhasiz, oziq-ovqat xavfsizligi asosan, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, ilmiy-texnik taraqqiyotni, aholining farovonligi va sog'lig'ini belgilovchi

murakkab hodisa bo'lib, bir necha jihatlarga ega: birinchidan, oziq-ovqatning jismoniy mavjudligi, uning ichki iste'mol bozorida yetishmasligi xavfini istisno qiladi; ikkinchidan, oziq-ovqatning iqtisodiy mavjudligi, ya'ni oziq-ovqatning mavjudligi har bir fuqaroning minimal oziq-ovqat to'plamini sotib olish uchun yetarli daromad darajasi bo'ladi; uchinchidan, oziq-ovqatdan foydalanishning barqarorligi; to'rtinchidan, bozorda aholi salomatligi uchun xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan sifatsiz va xavfli oziq-ovqat mahsulotlarining paydo bo'lish xavfini oldini olish.

SHunga asoslanib, oziq-ovqat xavfsizligining quyidagi asosiy qoidalarini shakllantirish mumkin. Birinchidan, ma'lum bir mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun mamlakat talablarini to'liq ta'minlaydigan barqaror va yetarli darajada oziq-ovqat ishlab chiqarish kafolatlanishi kerak. Ikkinchidan, oziq-ovqat xavfsizligiga faqat oziq-ovqatdan foydalanishning jismoniy va iqtisodiy sharoitlari kafolatlanganda erishish mumkin. Uchinchidan, oziq-ovqat xavfsizligiga erishish maqsadida qishloq xo'jaligi mahsulotlari jahon bozoriga yetarli miqdorda yetkazib berilishi kerak. Va nihoyat, oziq-ovqat xavfsizligining so'nggi, ammo bir xil darajada muhim elementi aholini yaxshi, sog'lig'iga zarar yetkazmaydigan oziq-ovqat bilan ta'minlashdir.

Aholining oziq-ovqat xavfsizligi muammolarini hal qilish uchun oziq-ovqat ishlab chiqarishning rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishdan tashqari, qashshoqlikni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar, millat sog'lig'ini yaxshilash vazifalaridan kelib chiqqan holda, oziq-ovqat mahsulotlarining mavjudligi va sifatini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur, jumladan:

- bozor infratuzilmasini rivojlantirish va uning oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilari uchun mavjudligini oshirish;
- mintaqalararo savdo to'siqlarini o'rnatishga yo'l qo'ymaslik, shu jumladan qishloq xo'jaligi xomashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishni erkinlashtirish turli mintaqalarda aholi uchun oziq-ovqat mahsulotlarining jismoniy mavjudligini yaxshilaydi;
- aholining eng muhtoj qatlamlariga maqsadli oziq-ovqat yordami tizimini ishlab chiqish va aholining oziq-ovqat ta'minoti monitoringini har tomonlama tahlil qilish;
- standartlarni ishlab chiqadigan idoralar va ularning bajarilishi uchun javob beradigan tashkilotlarni birlashtirish orqali oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligini nazorat qilish bo'yicha yagona davlat organini tashkil etish;
- mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rag'batlantirish va raqobatbardoshligini oshirish.

Bugungi kunda tashqi va ichki sharoitlarning o'zgarishidan qat'i nazar, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- oziq-ovqat xavfsizligiga ichki va tashqi tahdidlarni o'z vaqtida prognoz qilish, aniqlash va oldini olish, strategik oziq-ovqat zaxiralarini shakllantirish orqali ularning salbiy oqibatlarini minimallashtirish;
- mamlakatning oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash uchun yetarli bo'lgan mahalliy oziq-ovqat va xom ashyo ishlab chiqarishning barqaror rivojlantirish;
- faol va sog'lom turmush tarzi uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishning belgilangan oqilona me'yorlariga mos keladigan hajm va assortimentda

mamlakatning har bir fuqarosi uchun xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarining jismoniy va iqtisodiy mavjudligiga erishish;

Xulosa qilib aytganda, milliy va mintaqaviy darajada o'zaro bog'liq va muvofiqlashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy, qonunchilik, ma'muriy va ijtimoiy chora-tadbirlar majmuini tizimli va izchil amalga oshirish oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning muhim mexanizmidir. Mintaqada ishlab chiqarishni tartibga solishning kombinatsiyasi va sanoatni tez o'zgarib turadigan ichki zaxiralarga moslashtirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni sezilarli darajada oshishiga va aholi hayotining ijtimoiy ko'rsatkichlarining o'shiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Integrating displaced communities into food systems.

<https://www.ifpri.org/blog/integrating-displaced-communities-food-systems>.

2. Barrenar R. An analysis of the decision structure for food innovation on the basis of consumer age// J. International Food and Agribusiness Management Review. – Corvallis: 2015, № 18 (3). – pp. 149-170.

3. Capone R. Food Economic Accessibility and Affordability in the Mediterranean Region: an Exploratory Assessment at Micro and Macro Levels// Journal of Food Security. – Newark: 2014, № 1. – pp. 1-12.

4. Negi S. Food Processing Entrepreneurship for Rural Development: Drivers and Challenges// Third International Conference on Sustainability: Ecology, Economy & Ethics. – New Delhi: 2013. – pp. 186-197.

5. Алтухов А.И. Продовольственная безопасность страны и ее оценка// Ж. Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. – М.: 2008, № 5. – С. 1-5.

6. Бурдуков П.Т. Россия в системе глобальной продовольственной безопасности. – М.: АгроПресс, 2004. – С. 38-45 с.

7. Серков А.Ф. Обеспечение продовольственной безопасности страны в условиях экономического кризиса// Ж. Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. – М.: 2009, № 12. – С. 9-11.

8. Майорова Н.В., Майоров М.К., Бахтуразова Т.В., Еделев Д.А. Механизмы обеспечения устойчивого развития и продовольственной безопасности суверенной страны// Вестник университета. – М.: № 3, 2020. — С. 52–56.

9. Capone R., Bilali H., Debs Ph., Cardone G. Food System Sustainability and Food Security: Connecting the Dots// Journal of Food Security. - № 1, 2014. - pp. 13–22.

10. Алтухов А.И. Регион в системе обеспечения продовольственной безопасности страны: методологический аспект // Агропродовольственная политика России. – М: № 2 (50), 2016. - С. 2–7.

11. Weikard H. Phosphorus recycling and food security in the long run: a conceptual modelling approach// J. Food Security. - № 2, 2016. - pp. 405–414.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

